

## OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI YETISHTIRISHNING HUDUDIIY JIHLTLARI

**Kazakova Zulayho Salaxiddinovna**

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Iqtisodiyot va buxgalteriya hisobi kafedrasi katta o'qituvchisi*

**Isrofilova Iroda Iskandarovna**

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Iqtisodiyot fakulteti talabasi*

**Annotatsiya.** Sizlarga yaxshi ma'lumki, oziq-ovqat xavfsizligi, uni barqaror yetkazib berish, ochlik va qashshoqlikka qarshi kurash masalalari bugun ham o'ta dolzarb bo'lib qolmoqda. So'nggi o'n yillarda "yashil inqilob" va innovatsion texnologiyalarning keng joriy etilishi tufayli qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi keskin oshdi, tobora ko'payib borayotgan dunyo aholisini oziq-ovqat bilan ta'minlashda sezilarli yutuqlarga erishildi.

Afsuski, keyingi paytda koronavirus pandemiyasi, jahon siyosati va iqtisodiyotidagi inqirozlar qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetkazib berish tizimida zanjirlarning uzilishi va narxlar oshishiga sabab bo'ldi. Bundan, ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlar jabr ko'rmoqda.

Global iqlim o'zgarishlari, qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat tizimiga investitsiya hajmi kamayishi vaziyatni yanada og'irlashtirmoqda. Bu esa Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishni xavf ostida qoldirmoqda.

**Kalit so'zlar.** oziq-ovqat xavfsizligi, ochlik va qashshoqlik, "yashil inqilob", innovatsion texnologiya, Barqaror rivojlanish maqsadlari, "Nol ochlik", suv tejovchi texnologiyalar, innovatsion, resurstejamkor texnologiyalar,

**Аннотация.** Как известно, вопросы продовольственной безопасности, ее устойчивого снабжения, борьбы с голодом и бедностью остаются сегодня крайне актуальными. В последние десятилетия благодаря «зеленой революции» и широкому внедрению инновационных технологий резко возрос объем производства сельскохозяйственной продукции, достигнут значительный прогресс в обеспечении продовольствием постоянно растущего населения планеты. К сожалению, позднее пандемия коронавируса, глобальный политический и экономический кризисы вызвали сбои в цепочках и рост цен в системе поставок сельскохозяйственной продукции. Особенно от этого страдают развивающиеся страны. Глобальное изменение климата и сокращение инвестиций в сельское хозяйство и продовольственные системы усугубляют ситуацию. Это ставит под угрозу достижение Целей устойчивого развития.

**Ключевые слова.** продовольственная безопасность, голод и нищета, «зеленая революция», инновационные технологии, Цели устойчивого развития, «Нулевой

голод», водосберегающие технологии, инновационные, ресурсосберегающие технологии,

**Abstract.** *As you know, the issues of food security, its sustainable supply, the fight against hunger and poverty remain extremely relevant today. In recent decades, thanks to the “green revolution” and the widespread introduction of innovative technologies, the volume of agricultural production has sharply increased, and significant progress has been made in providing food to the ever-growing population of the planet. Unfortunately, the coronavirus pandemic and global political and economic crises later caused chain disruptions and price increases in the agricultural supply chain. Developing countries especially suffer from this. Global climate change and declining investment in agriculture and food systems are exacerbating the situation. This jeopardizes the achievement of the Sustainable Development Goals.*

**Keywords.** *food security, hunger and poverty, “green revolution”, innovative technologies, Sustainable Development Goals, “Zero Hunger”, water-saving technologies, innovative, resource-saving technologies*

**Kirish.** Hozirgi vaqtda qishloq xo‘jaligi ekinlarining serhosil, tashqi ta’sirlarga chidamli navlarini yaratish, chorva naslini yaxshilash o‘ta muhim ahamiyat kasb etmoqda. Fermerlar va kichik ishlab chiqaruvchilarga axborot-konsalting markazlarini tashkil etish, ularni resurs tejaydigan ilg‘or texnologiya va usullar bo‘yicha o‘qitish uchun agrokonsalting xizmatlari sifatini tubdan yaxshilash ham dolzarb bo‘lib bormoqda. Zamonaviy texnologiyalar va qishloq xo‘jaligi texnikasi rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlardagi fermerlar uchun bir xilda ochiq va hamyonbop bo‘lishi kerak.

O‘zbekiston zamini o‘zining qadimiy va boy dehqonchilik an‘analari, g‘oyat xilma-xil, mazali va noyob qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bilan azaldan shuhrat qozonib keladi. Agrotarmoq iqtisodiyotimizdagi yetakchi sektorlardan biri bo‘lib, mehnatga layoqatli aholimizning 27 foizi ushbu sohada mehnat qiladi. Mamlakatimizda qishloq xo‘jaligini yanada samarali va resurs tejaydigan sohaga aylantirish, qishloqda aholi hayot darajasini yaxshilash, xalqimizni arzon va barqaror narxlarda xavfsiz va vitaminlarga boy oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlash, sog‘lom ovqatlanishni yo‘lga qo‘yish masalalariga alohida e’tibor berilmoqda.

Bizning yurtimizdan yetishib chiqqan, G‘arbda “Avitsenna” degan nom bilan shuhrat qozongan buyuk alloma Ibn Sino bobomiz o‘rta asrlardayoq “Kimki uzoq va sog‘lom hayot kechirishni istasa, avvalo, ovqatning sifati va miqdoriga e’tibor qaratsin”, deb ta’kidlaganlar.

Albatta, dunyo aholisi o‘rtasida sog‘lom ovqatlanish madaniyatini shakllantirish — uzoq davom etadigan jarayon. Bu maqsadga erishishda barcha davlatlar hukumatlari, ishlab chiqaruvchilar, olimlar va tibbiyot xodimlari yaqin hamkorlikda ish olib borishlari lozim, deb hisoblaymiz.

Bugungi kunda oziq-ovqat xavfsizligi dunyo miqyosida dolzarb bo'lib turibdi. Cho'llanish, yer degradatsiyasi, suv tanqisligi, iqlim o'zgarishi kabi omillar ushbu yo'nalishdagi ishlarni yanada jadallashtirishni taqozo etmoqda.

2,3 milliard inson oziq-ovqat yetishmovchiligi ta'sirida yashamoqda, ularning 566 millioni yoki 25 foizi Osiyo qit'asi hissasiga to'g'ri kelayotgani bu borada jiddiy o'ylash mavridi kelganini anglatadi.

Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash global ahamiyatga ega va yechim topishi lozim va shart bo'lgan ustuvor vazifalar sirasiga kiradi. Zero, u nafaqat insoniyat to'q hayot kechirishi, balki turmush tarzini yaxshilash, salomatligini muhofaza qilish va iqtisodiy farovonligini ta'minlash uchun ham zamin bo'ladi. Bugun dunyo miqyosida oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirish jarayoniga ilg'or g'oya va tashabbuslar izchil tatbiq etilmoqda. Pirovardida ishlab chiqarish hajmi muttasil ortib boryapti. Ayni chog'da oziq-ovqat yetishmovchiligiga uchrayotgan, ochlik sharoitida qolayotganlar ham kam emas. Bu holat ushbu yo'nalishda zarur choralarni kuchaytirishni taqozo etadi.

Binobarin, O'zbekiston bu borada o'ziga xos amaliyotga ega. Qishloq xo'jaligi sohasidagi islohotlar ko'lami tobora kengayib bormoqda. Ya'ni mamlakatimiz jahon qishloq xo'jaligi mahsulotlari bozorining munosib ishtirokchisi. So'nggi yillarda yurtimizda oziq-ovqat yetishtirish hajmini ko'paytirish orqali ichki bozorni sifatli mahsulotlar bilan ta'minlash hamda eksport salohiyatini oshirish maqsadida ekin maydonlari sezilarli darajada kengaytirildi. Bundan tashqari, sohaga zamonaviy texnologiya va usullar joriy etilishi hosildorlikni sezilarli oshirishga imkon berdi. Eng muhimi, oziq-ovqat xavfsizligi mustahkamlanib, yurtdoshlarimiz sifatli va arzon qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan ta'minlanmoqda. Jumladan, yurtimizda 2017-yilda 1 million 133 ming gektarga boshqoli don ekilib, 6,4 million tonna hosil olingan bo'lsa, 2022-yilda 1 million 32 ming gektarda 7,2 million tonna boshqoli don yetishtirilgan. Gektariga o'rtacha hosildorlik 69,7 sentnerga yetib, yetti yilda 13 sentnerdan ziyodroq oshdi. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaliklarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar qiymati aholi jon boshiga 2017-yildagi 4,8 million so'mdan 2022-yilda 10,2 million so'mgacha ko'tarilgan. Chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi so'nggi 6 yilda 2,4 barobar ortdi. Bugun zaminimizda pishib yetilgan mahsulotlar dunyo bozorida o'z o'rniga ega. Ta'bir joiz bo'lsa, jahon bozorining eng oldi va xaridorgir mahsulotlari sirasiga kiradi. Dehqonlarimiz yetishtirgan mahsulotlariga dalaning o'zidayoq buyurtma olyapti. Bu O'zbekiston zamini, tabiati saxovatidir. 2016-2022-yillarda 130 dan ortiq davlatga 7 milliard dollarlik meva-sabzavot va oziq-ovqat sanoati mahsulotlari eksport qilingani, ushbu ko'rsatkich 2,1 barobar o'sib, eksport geografiyasi 51 tadan 81 taga kengaygani diqqatga sazovor. 2023-2030-yillarda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash va oziq-ovqat sanoati mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini hozirgi 6 milliard dollardan 12 milliard dollarga yetkazish mo'ljallanmoqda. Bundan tashqari, oziq-ovqat sanoati korxonalarini soni hozirgi 22,4 mingdan 30

mingtaga, mahsulot ishlab chiqarish assortimenti 1 ming 500 taga (amalda 1,1 mingta) yetkaziladi.

**Metod va materiallar.** Ushbu maqolamizda Respublikada qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish sur'atlari statistik taqqoslash usulidan foydalanib tahlil qilindi. 2023- yil Respublikamizda yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 404 648,6 mlrd, so'mni yoki 2022-.yilning mos davriga nisbatan 103,9 % ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari 202 679,1 mlrd. so'mni (104,2 %), chorvachilik mahsulotlari – 201 969,5 mlrd, so'mni (103,7 %) tashkil qildi.

Hududlar kesimida qishloq xo'jaligi mahsulotlarining eng yuqori hajmi Samarqand (49 140,1 mlrd. so'm), Andijon (41 278,6 mlrd. so'm) va Qashqadaryo (38 565,3 mlrd. so'm) viloyatlarida qayd etilib, Sirdaryo viloyati (13.372,2 mlrd. so'm), Qoraqalpog'iston Respublikasi (15.349,3 mlrd. so'm), va Navoiy viloyatida (18.183,5 mlrd. so'm) aksincha, nisbatan pastroq hajmlar kuzatildi. Hududlar kesimida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari tahliliga ko'ra, yuqori o'sish sur'atlari Sirdaryo (106,2 %), Namangan (104,4 %), Samarqand (104,3.%) va Qashqadaryo (104,2 %) viloyatlarida qayd etilib, Navoiy (101,9 %), Toshkent va Surxondaryo viloyatlarida (103,6.% dan) esa aksincha past o'sish sur'atlari kuzatildi.

**Natijalar va ularning tahlili.** Xo'jalik toifalari bo'yicha tahlillarga ko'ra, qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 63,1 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 29,8 % i fermer xo'jaliklariga, 7,1 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelmoqda. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ulushining hududlar bo'yicha xo'jalik toifalari kesimida taqsimlanishi tahlil qilinganda, eng yuqori ko'rsatkichlar barcha hududlarda dehqon va tomorqa xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzatildi.

2023- yilning yakuniga ko'ra, yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari tarkibidagi fermer xo'jaliklarining ulushi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Farg'ona viloyatida (40,0 %), dehqon va tomorqa xo'jaliklarining yuqori ulushi Navoiy viloyatida (72,0 %), qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning yuqori ulushi Toshkent viloyatida (17,6 %) qayd etildi.

Fermer xo'jaliklarining qishloq xo'jaligi mahsuloti tarkibidagi ulushi bo'yicha nisbatan past ko'rsatkich Toshkent viloyatida (15,5 %), dehqon va tomorqa xo'jaliklarining eng kam ulushi Sirdaryo viloyatida (50,4 %), qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng kam ulushi Farg'ona viloyatida (3,6 %) kuzatildi.

Yetishtirilgan dehqonchilik mahsulotlari hajmini hududlar kesimida tahliliga ko'ra, yuqori o'sish sur'atlari Sirdaryo (108,4 %), Jizzax (107,2 %) va Namangan (105,4 %) viloyatlarida qayd etilgan bo'lsa, Navoiy (98,0 %) hamda Andijon (102,8 %) viloyatlarida nisbatan past ko'rsatkichlar kuzatildi.

2023-.yil barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 8 426,6 ming t. donli ekinlar (2022- yilning yanvar-dekabriga nisbatan 5,5 % ga ko'p), 3 574,1 ming t. kartoshka (3,8

% ga ko'p), 11 553,7 ming t. sabzavotlar (3,5 % ga ko'p), 2 553,5 ming t. poliz (5,5 % ga ko'p), 3 121,7 ming t. meva va rezavorlar (4,1 % ga ko'p), 1 737,6 ming t. uzum (1,3 % ga kam) 3 710,3 ming t. paxta (xom ashyosi) (6,0 % ga ko'p) yetishtirildi.

**Jadval -1**

**2023- yil yanvar-dekabr oylarida yetishtirilgan asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlari**

	Barcha toifadagi xo'jaliklar		shu jumladan:					
	ming tonna	o'sish sur'ati % da	fermer xo'jaliklari	dehqon va tomorqa xo'jaliklari	qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	ming tonna	o'sish sur'ati % da	
Donli ekinlar	8426,6	105,5	6599,8	104,0	795,7	108,8	1031,1	112,8
Sabzavotlar	11553,7	103,5	4173,4	103,3	6924,0	102,7	456,3	120,0
Kartoshka	3574,1	103,8	994,1	109,5	2498,6	101,5	81,4	111,1
Poliz ekinlari	2553,5	105,5	1418,2	108,0	1016,3	101,9	119,0	108,0
Meva va rezavorlar	3121,7	104,1	1415,0	105,9	1605,4	103,2	101,3	95,1
Uzum	1737,6	98,7	777,1	97,5	911,0	99,5	49,5	102,5

Chorvachilik sohasining ichki imkoniyatlarini oshirish bo'yicha choratadbirlarning izchil amalga oshirilib borilayotganligi, shuningdek, ularga davlat tomonidan tizimli yordam ko'rsatilib kelinayotganligi chorva mollari bosh sonining ko'payishiga, ichki iste'mol bozorlarini chorvachilik mahsulotlari bilan to'ldirishga imkon yaratdi. 2023- yil barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 2 833,3 ming t. go'sht, 11 968,7 ming t. sut, 8 487,5 mln. dona tuxum, 38,6 ming tonna jun, 1 321,1 ming dona qorako'1 teri yetishtirildi va 198,9 ming t. baliq ovlandi. Hisobot davrida tirik vaznda yetishtirilgan go'sht hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 103,9 % ni, sog'ib olingan sut – 102,9 % ni, olingan tuxum – 104,4 % ni, qirqib olingan jun – 103,6 % ni, olingan qorako'1 teri – 102,6 % ni hamda ovlangan baliqlar – 107,3 % ni tashkil qildi.

**Jadval -2**

**2023- yil yanvar-dekabr oylarida yetishtirilgan asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlari va ovlangan baliqlar**

	Barcha toifadagi xo'jaliklar		shu jumladan:		
	ming tonna	o'sish sur'ati % da	fermer xo'jaliklari	dehqon va tomorqa xo'jaliklari	qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi

							tashkilotlar	
	ming tonna	o'sish sur'ati % da	ming tonna	o'sish sur'ati % da	ming tonna	o'sish sur'ati % da	ming tonna	o'sish sur'ati % da
Go'sht (tirik vaznda)	2833,3	103,9	179,0	105,1	2406,6	102,0	247,7	126,6
Sut	11968,7	102,9	706,7	112,2	11104,7	102,2	157,3	116,0
Tuxum mln, dona	8487,5	104,4	1329,8	111,0	4912,8	102,2	2244,9	105,6
Jun	38,6	103,6	4,6	101,0	31,7	104,7	2,3	94,1
Qorako'l teri, ming dona	1321,1	102,6	142,0	110,0	1045,4	100,4	133,7	113,6
Baliq	198,9	107,3	98,6	104,0	10,3	102,2	90,0	111,9

2023- yil yetishtirilgan chorvachilik mahsulotlari to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yetishtirilgan go'shtning umumiy hajmidan 6,3 % i fermer xo'jaliklari hissasiga, 84,9 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 8,8 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim. Shunga mos ravishda sog'ib olingan sutning 5,9 % i fermer xo'jaliklari, 92,8 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklari, 1,3 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri keldi. Shu bilan birga, olingan tuxumning 15,7 % i fermer xo'jaliklariga, 57,9 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 26,4 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi. Shuningdek, qirqib olingan junning 11,9 % i fermer xo'jaliklariga, 82,1 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 6,0 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi. Bundan tashqari, olingan qorako'l terining 10,8 % i fermer xo'jaliklariga, 79,1 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 10,1 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi. O'z navbatida, ovlangan baliqlarning 49,6 % i fermer xo'jaliklariga, 5,2 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 45,2 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelganligini qayd etish lozim.

**Xulosa va takliflar.** Oxirgi yillarda O'zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligi bo'yicha muayyan ishlar qilinmoqda. Bu borada katta ijobiy o'zgarishlar kuzatildi. Lekin bularni yetarli deb hisoblash to'g'ri emas. Ishlarni yanada kengaytirish kerak.

Ocharchilik O'zbekistonda muammo bo'lmasa-da, ushbu masalani oldindan o'ylab borishimiz lozim. Chunki aholi soni doimiy ko'payib bormoqda, yerni kengaytirishning esa imkoni yo'q. Suv resurslari tanqisligini ham hammamiz ko'rib, bilib turibmiz.

Shunday ekan, ushbu yo'nalishdagi ishlarni yanada jadallashtirish kerak. Buning uchun birgalikda harakat qilishimiz lozim.

“Nol ochlik”ka erishishning asosiy jihatlaridan biri monitoring hisoblanadi. Mahsulot yetishtirish va uni iste'mol qilishni to'g'ri yo'lga qo'yish kerak. Dunyo olimlari ta'kidlaydiki, agar ushbu ishlar to'g'ri tashkil etilsa, hozir dunyoda yetishtirilayotgan mahsulot hammaga yetarli bo'ladi. Boshqacha aytganda, ocharchilik bo'lishi kerak emas. Lekin qaysidir sabablarga ko'ra uzilishlar borki, ana shularga alohida e'tibor qaratilib, asosiy qishloq xo'jaligi mahsulotlarini bir davlatdan ikkinchi davlatga yetkazib berish, yagona standartlar, raqamlashtirilgan tizimlar ishlab chiqilishi masalalari muhokama qilinmoqda.

Mintaqada chuchuk suv resurslari kamayib bormoqda. Aslida, dunyo miqyosida ham ahvol qoniqarli emas. Shuning uchun suv tejevchi texnologiyalar samaradorligiga diqqatimizni qaratishimiz kerak. Aks holda, katta tanazzulga yuz tutishimiz mumkin. Shu bois, biz ushbu yo'nalishga investitsiyalar, ilg'or texnologiyalarni jadal tatbiq etishimiz kerak. Bunda aynan qishloq joylarga e'tiborni qaratish juda foydali.

Mintaqa mamlakatlarning dengizga to'g'ridan-to'g'ri chiqish imkoniyati yo'q. Jumladan, O'zbekiston dunyoga chiqishi uchun ikkita mamlakat hududidan o'tishi kerak. Kamchilikni yechimga yo'l sifatida ko'rishimiz lozim. Bu borada transport logistikasi sohasida ham hamkorlikni rivojlantirish zarur. Bu kabi masalalarga yechim topish, uzoq muddatli strategiyalarni rivojlantirish va unga bosqichma-bosqich erishish lozim. O'zbekistonning iqtisodiy barqarorligi bunda muhim ahamiyat kasb etadi. Shunda mamlakat va mintaqa yanada rivojlanadi. Ya'ni ming yillar oldin O'zbekiston sivilizatsiyalar maskani bo'lgani kabi ham iqtisodiy, ham madaniy tarafdin avvalgi darajalariga erishadi. Albatta, bu rivojlanishda qishloq joylar, agrar tarmoqqa alohida e'tibor qaratilishi shart, chunki bularsiz rivojlanish mushkul.

Shu bois qishloq xo'jaligida tabiiy resurslardan samarali foydalanish uchun ekin turlarini optimal joylashtirish, agrotexnologik jarayonlarni o'z vaqtida va muddatlarida amalga oshirish ishlarini davom ettirish, innovatsion, resurstejamkor texnologiyalarni joriy etish maqsadga muvofiqdir.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

37. Alikulov, A. I., & Bakhriev, M. (2023). IMPROVING THE ACCOUNTING OF THE COSTS OF MODERNIZATION AND REPAIR OF KEY EQUIPMENT IN AGROCLUSTERS. *International Journal Of Literature And Languages*, 3(11), 14-19.

38. Nazarova, M., & Kazakova, Z. (2023). Paxta-to'qimachilik klasterlarida sotish baholarining tahlili.

39. Kazakova, Z. S., & Aslonov, X. (2023). QISHLOQ XO'JALIGINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI O'RNI. *The Journal of Economics, Finance and Innovation*, 391-398.

40. Salaxiddinova, K. Z. (2023). Methodology of Teaching Economics and Accounting in a Market Economy. *Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities*, 18, 66-68.

41. Salamov, I., Jonibekov, F., Kazakova, Z., & Nazarova, M. (2022). The Role of Investments in Ensuring the Economic Stability of Livestock and Prospective Opportunities. *INTERNATIONAL JOURNAL OF BIOLOGICAL ENGINEERING AND AGRICULTURE*, 1(3), 1-4.

42. Ablaqulovich, I. G., Salaxuddinova, K. Z., Uytalovich, N. U., & Matlubovich, T. O. (2020). The impact of the organization of a cotton-textile cluster on the socio-economic development of the regions. *International Engineering Journal For Research & Development*, 5(4), 5-5.

43. Salamov, I., Kazakova, Z. S., Nazarova, M. S., & Jonibekov, F. B. (2022). Prospects for digitalization of order tables in infrastructure development in agriculture of the republic of uzbekistan.

44. Alikulov, A. M., & Toshpulatov, J. (2023). Agroklastarlarda moliyaviy natijalar hisobini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish masalalari.

45. Alikulov, A. I., & Bakhriev, M. (2023). IMPROVING THE ACCOUNTING OF THE COSTS OF MODERNIZATION AND REPAIR OF KEY EQUIPMENT IN AGROCLUSTERS. *International Journal Of Literature And Languages*, 3(11), 14-19.

46. Аликулов, А. И. (1993). Совершенствование учета затрат на производство, переработку и исчисление себестоимости продукции хлопка-сырца в хлопковом комплексе (на примере хлопководческих хозяйств и хлопкоочистительных заводов Самаркандской области).

47. Эшмурадов, У. Т. (2022). СОТИШ ЖАРАЁНЛАРИНИНГ МОЛИЯВИЙ ҲИСОБОТНИНГ ХАЛҚАРО СТАНДАРТЛАРИ БЎЙИЧА ТРАНСФОРМАЦИЯСИ МАСАЛАЛАРИ. *Архив научных исследований*, 2(1).

48. Tashmurotov, E. U. (2023). IMPROVEMENT ACCOUNTING OF PROCESS REALIZATION IN FARM ENTERPRISES. *JOURNAL OF VETERINARY SCIENCE*, 6(5), 20-28.

49. Olimjonova, J. R. D., & Tashmurotov, E. U. B. (2023). AGROKLASTARLARDA KAPITAL SARFLAR HISOBINI TASHKIL ETISHNING NAZARIY ASOSLARI. *MASTERS*, 1(1), 112-118.

50. Ixtiyorovich, Q. L. A., Shavkat o'g'li, I. R., & Tashmurotov, E. U. B. (2023). XARAJATLAR HISOBIDA QO 'LLANILADIGAN ATAMALAR MOHIYATI TAHLILI VA ULARNI TIZIMLASHTIRISH. *MASTERS*, 1(1), 127-131.

51. Eshmurotov, U. B. (2023). Sotish jarayonlari hisobini buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari asosida takomillashtirish.

52. Mardiyeva, S. G., & Abdusamatovich, J. J. (2022). SANOAT 4.0 KONSEPSIYASI VA UNGA TA'SIR ETUVCHI RISKLAR. *Current Issues of Bio*



*Economics and Digitalization in the Sustainable Development of Regions (Germany)*, 712-721.

53. Пардаева, О. М., & Жавманов, Ж. А. (2023). СНИЖЕНИЕ УРОВНЯ БЕЗРАБОТИЦЫ ПУТЕМ ВОВЛЕЧЕНИЯ НАСЕЛЕНИЯ НА САМОЗАНЯТОСТЬ. *PEDAGOG*, 6(4), 568-574.

54. Жавманов, Ж. А., & Уралов, Б. М. (2023). Методология оценки и измерения бедности населения. *Pedagog*, 6(11), 237-246.

55. Abdusamatovich, J. J. (2023). THE POPULATION WISHES FOR POVERTY REDUCTION AND EMPLOYMENT. *JOURNAL OF ECONOMICS AND BUSINESS MANAGEMENT*, 6(5), 26-38.

56. Жавманов, Ж. А., Хотамов, А. А. У., & Амонов, С. Т. У. (2023). ПЕРСПЕКТИВЫ ИЗВЕДЕНИЯ НАСЕЛЕНИЯ ОТ БЕДНОСТИ. *JOURNAL OF MULTIDISCIPLINARY BULLETIN*, 6(5), 193-203.

57. Жавманов, Ж. А., & Муродкулов, Ж. Х. (2023). ФАКТОРЫ БЕДНОСТИ В СТРАНАХ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ. *PEDAGOG*, 6(11), 247-254.

58. Жавманов, Ж. А. (2023). СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ОПРЕДЕЛЕНИЯ КРИТЕРИЕВ БЕДНОСТИ. *JOURNAL OF MULTIDISCIPLINARY BULLETIN*, 6(5), 306-318.

59. Kozimbek G'anijon o'g, M., & Abdusamatovich, J. J. (2023). KAMBAG'ALLIKNI BARTARAF ETISHNING HORIJIY TAJRIBALARI VA UN DAN MAM LAKATIMIZDA FOYDALANISH IMKONIYATLARI. *JOURNAL OF VETERINARY SCIENCE*, 6(5), 1-11.

60. Erkin o'g, D. S. M., & Abdusamatovich, J. J. (2023). KAMBAG'ALIKNI BARTARAF ETISH BO'YICHA ERISHILGAN NATIJALAR. *JOURNAL OF VETERINARY SCIENCE*, 6(5), 12-19.

61. Жавманов, Ж. А., Уралов, Б. М., & Очилова, М. Т. (2024). ФИНАНСОВО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ РЕАЛИЗАЦИИ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ. *O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI*, 2(26), 240-250.

62. Makhmudovich, U. B., Abdusamatovich, J. J., Tashtemirovna, O. M., & Ugli, F. U. K. (2024). TAXATION OF INDIVIDUAL ENTREPRENEURS AS A FORM OF STATE REGULATION OF SELF-EMPLOYMENT. *O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI*, 2(26), 232-239.

63. Abdusamatovich, J. J., Makhmudovich, U. B., Tashtemirovna, O. M., & O'g'li, F. U. X. (2024). O 'ZBEKISTONDA INNOVATSION IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING GLOBAL TENDENSIYALARI. *O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI*, 2(26), 222-231.

64. Жавманов, Ж. А., Уралов, Б. М., Очилова, М. Т., & Файзуллаев, У. Х. У. (2024). НАЛОГООБЛОЖЕНИЕ ИНДИВИДУАЛЬНЫХ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЕЙ КАК ФОРМА ГОСУДАРСТВЕННОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ САМОЗАНЯТОСТИ. *SO‘NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI*, 7(1), 369-378.

65. Очилова, М. Т., Уралов, Б. М., Жавманов, Ж. А., & Файзуллаев, У. Х. У. (2024). РАЗРАБОТКА МОДЕЛИ РАЗМЕЩЕНИЯ И СПЕЦИАЛИЗАЦИИ СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА В РЫНОЧНОЙ ЭКОНОМИКЕ В САМАРКАНДСКОЙ ОБЛАСТИ. *SO ‘NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI*, 7(1), 379-386.

66. Уралов, Б. М., Очилова, М. Т., Жавманов, Ж. А., & Файзуллаев, У. Х. У. (2024). СОСТОЯНИЕ РАЗВИТИЯ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ В УЗБЕКИСТАНЕ. *SO ‘NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI*, 7(1), 387-395.

67. Piyos, A., & Uralov, B. Investment Strategy as a Factor of Innovation in Uzbekistan. *JournalNX*, 453-456.

68. Uralov, B., & Ishturdiyev, H. (2023). O ‘zbekistonda hududlar kesimida raqamli iqtisodiyotning rivojlanish holati.

69. Maxmudovich, U. B., Baxtiyorovich, B. M. Z., & Ikrom o‘g‘li, A. H. (2024). RAQAMLI IQTISODIYOTNI AMALGA OSHIRISHNING MOLIYAVIY IQTISODIY MEKANIZMLARI. *JOURNAL OF ECONOMICS AND BUSINESS MANAGEMENT*, 7(1), 52-62.

70. Иштурдиев, Х. А. (2023). Совершенствование учета финансовых результатов в агрокластере. *Научный Фокус*, 1(7), 700-708.

71. Murodovich, G. R., & Hassan, I. (2023). IMPROVEMENT OF ACCOUNTING AND AUDIT OF FINANCIAL RESULTS IN BUSINESS ENTITIES. *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities*, 11(4), 1586-1592.

72. Uralov, B., & Ishturdiyev, H. (2023). O ‘zbekistonda hududlar kesimida raqamli iqtisodiyotning rivojlanish holati.

73. Yuldashev, S., & Ishturdiyev, H. (2023). Qishloq xo ‘jalik korxonalarida xarajatlar hisobi va mahsulot tannarxini takomillashtirish masalalari.

74. Гайбуллаев, Р. М., & Иштурдиев, Х. (2023). ХЎЖАЛИК ЮРИТИШ СУБЪЕКТЛАРИДА МОЛИЯВИЙ НАТИЖАЛАР ҲИСОБИ ВА АУДИТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ. *World of Science*, 6(4), 345-351.

75. Абдигаппарович, И. Х., & Юлдашев, Ш. Х. (2024). ВОПРОСЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ УЧЕТА ЗАТРАТ И СТОИМОСТИ ПРОДУКЦИИ НА СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ. *SO ‘NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI*, 7(1), 361-368.

76. Narziyeva, G., & Raximova, U. (2023). Superior directions, modern trends and prospects for the development of the financial market.